

Date: 17th November-2025

**ZAMONAVIY JAMIYATDA NIKOH INSTITUTINING HUQUQIY ASOSLARI
VA ULARNING RIVOJLANISHI**

Saidova Malikaxon Muhammadalixon qizi

Namangan Davlat Universiteti Yuridik fakultet 2-bosqich talabasi

saidovamalika2702@gmail.com +998942742450

Anotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatimizda nikoh qurish, davom ettirish va bekor qilish jarayonida amal qilinadigan qonuniy me'yorlar tizimi va uning maqsadi tahlil qilingan. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlariga oid Xalqaro konvensiyalari asosida nikohning erkinlik, tenglik va rozilik prinsiplari o'rganilgan. Shuningdek, zamonaviy davrda ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida nikoh institutida yuz berayotgan huquqiy va ijtimoiy o'zgarishlar ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: oila, nikoh, oila kodeksi, xalqaro huquq, tenglik, rozilik, islohot, qadriyat.

Abstract: This article analyzes the system of legal norms and its purpose that apply in the process of establishing, continuing, and dissolving marriage in our society. The article studies the principles of freedom, equality and Consent of marriage based on the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Family Code and international conventions on human rights of the United Nations. It also analyzes the legal and social changes taking place in the institution of Marriage under the influence of social networks in modern times.

Keywords: family, marriage, family code, international law, equality, Consent, reform, value.

Аннотация: В статье анализируется система правовых норм и ее назначение, применяемые при заключении, продолжении и расторжении брака в нашем обществе.. В статье рассматриваются принципы свободы, равенства и согласия в браке, основанные на Конституции Республики Узбекистан, Семейном кодексе и Международных конвенциях ООН по правам человека. Также анализируются правовые и социальные изменения, происходящие в институте брака под влиянием социальных сетей в современную эпоху.

Ключевые слова: семья, брак, Семейный кодекс, международное право, равенство, согласие, реформа, ценность.

Mustahkam oila-kuchli jamiyatning Poydevoridir.

Shavkat Mirziyoyev

Nikoh oilaning vujudga kelishi uchun birdan-bir asosdir. Nikoh ahdi insonlarga mas'uliyat yuklaydi. Chunki oilada ernaing ham, ayolning ham o'z vazifalari bor, ulardan har biri o'z vazifasini to'la ado etishga mas'uldirlar. Nikoh tufayli yangi oilalar vujudga keladi. Nikoh tuzish shunchaki rasmiyatchilik emas, uning davlat tomonidan qayd etilishi yuridik faktdir.



Date: 17th November-2025



Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Diniy rasm rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas. Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida oila va nikoh masalalari Konstitutsiya, Oila Kodeksi hamda xalqaro huquq me'yorlariga tayanadi. Oilalar erkinlik, rozilik, tenglik va huquqiy himoya tamoyillariga asosan quriladi.

Insoniyat tarixining barcha bosqichida nikoh institutini qurish bu asosiy o'rin egallagan. Buning boisi shundaki, har bir davlat eng avvalo, kichik-kichik oilalardan tashkil topadi. Ana o'sha oila mustahkam ekan, demak davlat ham, jamiyat ham mustahkam bo'ladi. Oldingi va hozirgi davrlardan shu narsa ma'lumki, davlatning aholisi ko'payib borar ekan, uning qudrati ham ortib boraveradi. Shuning uchun qadimdan podshohlar aholi sonini ko'paytirish borasida bosh qotirganlar. Aholi sonining ko'payishi va qudratli davlat barpo etish uchun esa oilalar mustahkam bo'lishi shartdir.

Dunyoda izzat va saodat tolibi bo'lmagan birorta qavm yo'q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi. (Fitrat)

«Har qanday inson uchun muhim va muqaddas qadriyatli maskan — bu uning oilasidir. Sog'lom va mustahkam oila — davlat tayanchi va jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Kattaga hurmat, kichikka izzat, odamiylik, mehr-oqibat, ona Vatanga muhabbat va sadoqat kabi olijanob fazilatlar avvalo oilada qaror topadi», — dedi davlat rahbari.

U bugungi globallashuv zamonida oila institutini har tomonlama himoya qilish, qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berish zarurati tobora kuchayib borayotganligini ta'kidladi.

«Bosh qomusimizda oila institutining konstitutsiyaviy asoslarini rivojlantirish maqsadida „Oila ayol va erkakning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi asosida shakllanishi“, jamiyatning tabiiy va tayanch bo'g'ini, jamiyat va davlatning alohida himoyasida ekanini mustahkamlab qo'yishni taklif etaman», — dedi Shavkat Mirziyoyev.

«Shuning uchun davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun zarur ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratishi, ko'p bolali oilalarga qonunga muvofiq imtiyoz va ijtimoiy kafolatlar yaratib berishi lozim. Shunda oilaning iqtisodiy va ma'naviy asoslari yanada mustahkam bo'ladi».

BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Ayollar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya (CEDAW), Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya kabi xalqaro hujjatlarda nikohga oid qoidalar tahlil qilinadi.

Afsuski, mamlakatimizda oilalar qurilar ekan, oilaviy ajrashishlar ham yo'q emas. Er-xotinning o'zaro roziligi bo'lgan nikohdan ajralishda ariza beruvchilar fuqarolik holati

Date: 17th November-2025

dalolatnomalarini yozish organlariga bergan arizalarida o'rtada voyaga yetmagan bolalari va mulkiy nizolari yo'qligi tasdiqlanishi shart.

Aks holda zo'ravonliklar yuzaga keladi. Zo'ravonlik oqibatlari oilalarning yemirilishida yaqqol aks etmoqda. 2025 yil 9 oyi mobaynida oilaviy zo'ravonlik va vajlar oqibatida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga nikohni bekor qilish uchun 50 ming ariza⁹ berilgan bo'lib, ulardan 37 tasi qanoatlantirilgan. Bu esa, har besh holatdan to'rttasida oilaning yemirilishiga olib keluvchi sabablar ro'y berganini anglatadi.

Eng yomoni, oilaviy zo'ravonlik sababli buzilgan nikohlar ortidan bolalarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan vaziyat yuzaga keladi. Bu ularning har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishiga jiddiy to'siq bo'ladi. Shu bois, zo'ravonlikning oldini olish borasida jamiyatning har bir qatlamiga tegishli mas'uliyat yuklatilishi zarurdir.

Prezident yordamchisi Saida Mirziyoyeva 2025-yili 9-aprel — oiladagi zo'ravonlikka qarshi qonun qabul qilinganiga ikki yil to'lgan kunda davlat rahbari qonunchilikka nikohdan ajratishda sudlar tomonidan tayinlanadigan "yarashtirish davri"ni bekor qilishga oid juda muhim o'zgartirish kiritilishini tasdiqlaganini ma'lum qildi. "Buni ayollarni oiladagi zo'ravonlikdan himoya qilish, ularning huquqlarini hurmat qilish yo'lidagi katta qadam deb hisoblayman. Agar oilada inson qadr-qimmati hurmat qilinmasa va u jismoniy, psixologik yoki iqtisodiy tahqirlarga duch kelsa, u yerda murosaga kelish, yarashish har qanaqasiga imkonsizdir. Yo'l qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, o'zingiz va farzandlaringiz tinchligini tanlang. Ota-onalar esa shuni yaxshi tushunib olishlari kerak: qizingizning zo'ravonlikdan qochib uyga kelishi emas, balki zo'ravonlikka toqat qilishga majbur bo'lishi — haqiqiy sharmandalikdir", deb yozadi Saida Mirziyoyeva.

Maqola yakunida nikoh institutining huquqiy asoslari inson erkinligi, tenglik va ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga tayanishi zarurligi ta'kidlanadi. Nikoh institutining huquqiy asoslarini rivojlantirish — bu inson huquqlarini himoya qilish, jamiyatda ma'naviy-axloqiy barqarorlikni saqlash va mustahkam oilaviy qadriyatlarni shakllantirishning muhim garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023-y. -112b. (Constitution of the Republic of Uzbekistan – Tashkent: publication of legal literature, 2023. -112p.)
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi – Toshkent: O'zbekiston, 1998-y. 13-modda, 218-modda. (Family Code of the Republic of Uzbekistan – Tashkent: Uzbekistan, 1998-y. article 13, article 218.)
3. Oila yoki oila boshqarish tartiblari / A. Fitrat; tarjimon va izohlar muallifi Sh. Vohidov; mas'ul maharrir H. Boltaboyev. — Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013 — 6 b. (Family or family management procedures / A. Fitrat; translator and author of footnotes

⁹ <https://daryo.uz/>



Date: 17th November-2025

Sh. Vohidov; responsible maharrir H. Boltaboyev. - Tashkent: Nmiu named after Chulpan, 2013. — 6 p)

4. Davlat va huquq asoslari: O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik / N. Ismatova, O. Karimova. -Birinchi nashr. – Toshkent.: Yangiyul Poligraph Service, 2018. – 14 b. (Fundamentals of state and law: textbook for the 11th grade of secondary educational institutions and secondary specialized, vocational educational institutions / N. Ismatova, O. Karimova. - First edition. - Tashkent.: Newyul Polygraph Service, 2018. – 14 p.)

5. https://uza.uz/uz/posts/zoravonlik-shahvoniy-shilqimlik-uchun-ozodlikdan-mahrum-etilayotganlar-bor_770015

6. <https://yuz.uz/uz/news/nikohdan-ajratishda-sudlar-tomonidan-tayinlanadigan-yarashtirish-davri-bekor-qilinadi>

7. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/20/family/>

8. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. OILA- IJTIMOIIY TARAQQIYOT MANBAI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 20.06.2025. 41-SON. 364-367

